



Methodology Of Organizing Work Outside The Classroom In Geography Lessons

Ahatova Durdona Saidovna,

A master's student in the field of teaching exact and natural sciences
(Geography)

Annotation: The article provides detailed information about the organization of extracurricular activities in geography lessons. Educational work in secondary school is limited to the program and, within the specified time, geography lessons consist of organizing and conducting extracurricular activities.

Key words: Geography, nature, minerals, golden autumn, community service, events, lakes, deserts, reservoirs, rivers, excursions, school.

Geografiya Darslarida Sinfdan Tashqari Ishlarni Tashkil Etish Metodikasi.

Ahatova Durdona Saidovna

Aniq va Tabiiy fanlarni o'qitish (Geografiya) ta'lim yo'nalishi magistranti

Annatasiya: Maqolada geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. O'rta maktabdagi o'quv ishlari dastur asosida cheklangan va belgilangan vaqt doirasida, geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va olib borilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Geografiya, tabiat, minerallar, oltin kuz, ommaviy ishlar, tadbirlar, ko'llar, cho'llar, suv omborlari, daryolar, ekskursiyalar, maktab.

Аннотация: В статье представлена подробная информация об организации внеклассной деятельности на уроках географии. Воспитательная работа в средней школе ограничивается программой



и в пределах указанного времени уроки географии заключаются в организации и проведении внеклассной работы.

Ключевые слова: География, природа, минералы, золотая осень, общественные работы, мероприятия, озера, пустыни, водохранилища, реки, экскурсии, школа.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda, maktabdagi o'quv ishlari dastur asosida cheklangan va belgilangan vaqt doirasida olib borilishi bizga ma'lum. Shuning uchun maktab o'quvchilarning barcha qiziqish va ehtiyojlarini qondirish imkoniyati mavjud emas.

Geografiya fani bo'yicha darslarida sinfdan tashqari ishlarga tabiat va tabiat hodisalarini o'rganish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilganda, mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. O'quvchilar e'tiborini tabiat hodisalarini, shuningdek, maktabdagi geografiya o'quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq kerak. O'quvchilarga qishloq xo'jaligiga tegishli maydonlar bilan tanishtirish. Jumladan paxtazor, bug'doyzor, uzumzor va daraxtzorlar bilan tanishtirishni tashkil qilmoq lozim. Bundan tashqari daryolar, ko'llar, suv omborlariga, cho'l mintaqalariga va ularning o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirishni tashkil kerak. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblarni o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqib yo'l xaritasini ishlab chiqish zarur. Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1- guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar;

2- guruhga cheklangan o'quvchilar doirasida olib boriladigan to'g'arak ishlari;

3- guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.



Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ommaviy mashg'ulotlar bunda maktab o'quvchilarni Buxoro viloyatidagi "Jayron" pitomnigiga sayohat tashkil qilishni, To'dako'l va Quyimozor suv omborlariga va ular bilan tutash erlar tabiatiga ekskursiya va yurislar o'tkazishni, o'quvchilar tomonidan qilingan ishlar va g'oyalarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek, ommaviy tadbirlar (turizm kuni, "Yashil makon" umum milliy dasturi asosida daraxt o'tqazish haftaligi, "Biz atrofimizni chiqitlardan toza tutamiz" va boshqalar) ni o'tkazishni nazarda tutadi.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun guruh mashg'ulotlariga yosh geograflar, yosh tabiatshunoslar kabi klub ishlari kiradi.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda individual mashg'ulotlar devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni; tabiat burchagi va maktab oldi o'quv-tajriba maydonidagi, tabiatdagi ishlarni; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun geografiya mazmunidagi materiallar bilan tanlashni, bolalar ilmiy-ommabop kitoblariga taqriz yozishni o'z ichiga oladi.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda individual ishlar. Tabiatni bilishga moyillik yoki hech bo'lmaganda qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan geografiya bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarda tabiatga qiziqishni vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va munosabati, o'quvchilarni ergashtira olishi va qiziqitira olish qobiliyati katta rol o'ynaydi. Uning o'quvchilarda kuzatishlarni qanday tashkil qilishiga, bu ishning zarurligi va muhimligini qanchalik asoslashiga, geografiyani o'qitishni qanday yo'lga qo'yishiga o'quvchilarning bilim sifatigina emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda geografiya sohasidagi ishlari bilan ishlashga istaklari ham bog'liqdir.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda individual topshiriqlarni bajarishda tadqiqot ishlarining ko'nikmalarini shakllantiradi, bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

O'quvchini nimaiki qiziqitirmasin – tog'lar, sayyoralar, osmon jismlari va tabiat zonalari tasvirlangan marka yoki otkritkalarini to'plashmi, yoki gerbariy tuzishmi,



tabiatda tajribalar va kuzatishlar o'tkazishmi - u o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va qo'llab quvvatlanishi lozim.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda individual topshiriqlar o'quvchilarning qiziqishlariga qarab, tanlanab olinadi ammo topshiriqlarning mazmuni ularning bajarilishini tashkil qilishi va metodikasi o'qituvchi tomonidan sinchiklab o'ylangan bo'lishi kerak (o'rganish obyekti, kuzatish yoki ish joyi belgilanadi, reja hamda yo'l xarita tuziladi). Ishning oxiriga yetkazilishi va unga qiziqishni yo'qotmasligi uchun individual topshiriqlar bajarilishida o'qituvchi o'quvchilarga muntazam yordam ko'rsatib borishi zarur.

Toshlar namunalari, minerallar yoki kolleksiyalar tayyorlash kabi shunday topshiriqlarni bajarilishi faqat o'qituvchi o'quvchilarni oldindan tog' va toshlari, shag'al toshlardan va boshqa tabiat obyektlarini yig'ish, tabiat hodisalarini kuzatish, to'plangan materiallarni montaj qilish va shu kabilarni qoidalariga o'rgatgandagina samarali bo'ladi. Shu maqsadda tabiatga o'quv ekskursiyasi va mehnat ta'limi darslaridan foydalaniladi. Tabiiy material to'plash qoidalari haqida hikoya qilish jarayonida, o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilish zarurligini eslatish kerak. Individual topshiriqlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida uning natijalari bilan o'quvchilarni tanishtirish va rag'batlantirish zarur.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda individual ishlarning amaliy ahamiyati faqat o'quvchilarni amalga oshirish zarurligini tushunganlaridagina ta'minlanadi. Shunga ko'ra bajarilgan ish to'g'risida vaqt-vaqti bilan (Geografiya darslarida yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) hisobot tinglab bo'rish foydalidir. Bunda har bir individual ishning natijalari barcha o'quvchilarning boyligi bo'lib qoladi. Bunday hisobotlar sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rag'batlantiradi, o'qituvchining tabiatga oid bilimini oshiradi va kengaytiradi, ularni sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida faol qatnashishlariga olib keladi.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda guruh mashg'ulotlari. Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo'lib o'tkaziladigan shakllaridan biri bu to'garak ishdir. U muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.



To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o'z zimmasiga aniq reja bo'yicha ishlash va boshlagan ishini oxiriga yetkazish majburiyatini oladi.

Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlar rejaga o'quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlar kiritilishi lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi - amaliy natijalar beruvchi faol ishlarni ta'minlashdir. Ishda har xil: o'qituvchi va o'quvchilarning tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan og'zaki bayon qilishi, amaliy o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati va boshqa metodlar to'g'ri uyg'unlashtirilishi lozim.

Geografiya fani bo'yicha to'garaklarni muvaffaqiyatli ishlashida mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. Birinchi mashg'ulot oldidan uni o'tkazish vaqti to'g'risida eslatish, to'garak vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtiruvchi, kirish suhbatining mazmunini barcha tafsilotlari bo'yicha o'ylab chiqish zarur. To'garakning ish rejasini tuza turib, mo'ljallangan mavzuni o'quvchilar bilan muhokama qilish va ularning taklif-istaklarini hisobga olish kerak. To'garakning birinchi mashg'ulotida uning faollari yoki kengashi (sardori, uning muovuni, muharririyat a'zolari) saylanadi va nomi («Hamma narsani bilishni istayman», «Biz va tabiat», «Yosh geogriflar», «Tabiatni sevuvchilar» va boshqalar) tasdiqlanadi. Eng yaxshi nom uchun tanlov e'lon qilinishi mumkin. Shuningdek, to'garakda qatnashuvchilarning xulq-atvori qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. Qoidalar quyidagicha:

- 1) Geografiya fani bo'yicha to'garak ishga faol qatnashish;
- 2) Geografiya fani bo'yicha to'garak ishga barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
- 3) Geografiya fani bo'yicha to'garakda har bir ishni nihoyasiga yetkazish;
- 4) Geografiya fani bo'yicha to'garakda kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish;
- 5) Geografiya fani bo'yicha to'garak ishtirokchilariga yordam berish;
- 6) Geografiya fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarga muntazam qatnashish.

Geografiya fani bo'yicha to'garak ishga fan o'qituvchi rahbarlik qiladi. Davomatni sardor yoki uning muovini maxsus jurnalda olib boradi. Mashg'ulotlar ikki



haftada bir marta muayyan kun va soatlarda o'tkaziladi. Birinchi mashg'ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik kerak. O'quvchilarga kichikroq, lekin qiziqarli kirish material berish kerak, toki ular to'garak ishiga qiziqsinlar va nima bilan shug'ullanishlari haqida dastlabki (taxminiy) tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Ishni video ko'rish, Geografiya mazmunidagi ilmiy-ommabop adabiyot o'qish bilan boshlash kerak.

Har bir yosh tabiatshunos geogrig yoki uch-to'rt o'quvchidan iborat kichik guruh o'qituvchi yordamida o'zlari uchun muayyan mavzuni tanlaydilar. To'garak rahbarining vazifasi har bir ishtirokchini u uddalaydigan foydali mavzu bilan qiziqtirishdir. To'garakda o'tkaziladigan ish xilma-xil bo'lishi, lekin umumiy maqsadga -jonajon tabiatni o'rganishga birlashtirilishi zarur. "Hamma narsani bilishni istayman" to'garagining (o'rta maktabning 3 - 4 sinflar) ishini quyidagi reja bo'yicha tashkil qilish mumkin:

- 1) kirish mashg'uloti;
- 2) tabiatga ekskursiya ("Kuz tabiati") mavzusi;
- 3). "Jonajon o'lkaning suvlari", "Yilning har xil fasllarida tabiat", "Yilning har xil fasllarida tabiat hodisalari" videoni ko'rish;
- 4) "Tabiat ustaxonasi", "Vaqt soati", "Ularni muhofaza qilish kerak» kabi otkritkalar yoki markalar turkumi bilan ishlash;
- 5) "Oltin kuz bulutlari" ertaligi;
- 6) "Foydali qazilmalar" operatsiyasi;
- 7) Tabiat (o'lkashunoslik) muzeyiga ekskursiya;
- 8) "Qizil kitoblar" to'g'risida suhbat; bu kitoblarga kiritilgan o'simlik va hayvonlarni tomosha qilish;
- 9) tabiatga ekskursiya (mavzu "Minerallar");
- 10) to'garak ishlarini yakunlash.

Mashg'ulotlarda xilma-xil: o'qituvchi va o'quvchilar hikoyasi, suhbat, amaliy ishlar bajarish (kolleksiya va gerbariyalar yasash, tajribalarga tayyorlanish va o'tkazish), tabiatda o'tkazilgan kuzatishlarni muhokama qilish uslublaridan foydalaniladi.



O'qitishning texnika vositalari hamda qiziqarli material to'g'arak ishlarining majburiy elementidir.

Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda klub ishi. Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari klub ishlaridan keng foydalanadilar, ularni boshqa ish shakllaridan farqi shundaki, klubda bolalar erkinroq faoliyat yuritishlari mumkin, o'zaro munosabatlar uchun erkin vaziyat yaratiladi, o'yinlarga ehtiyoj va qiziqish qanoatlantiriladi.

Klub majlislarida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mustaqil javoblar olishga o'rganadilar. Klub majlisining zarur elementlari o'quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning albatta ko'rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o'quvchilarni qiziqtirish uchun sinfga "So'rang, biz javob beramiz" yoki "Bilimdonning savollari" yozilgan quti qo'yiladi, unga savollar yozilgan varaqchalar solinadi.

Klubning navbatdagi majlisidan bir hafta oldin o'qituvchi savollarni mazmuniga qarab guruhlashtiradi, klub a'zolari orasida taqsimlaydi va javob topishni taklif qiladi. Javoblar tayyorlash uchun o'qituvchi klub a'zolariga ma'lumotnoma va ilmiy-ommabop adabiyotga murojaat qilishni, agar kerak bo'lsa, tabiatda yoki videodan tabiatni kuzatishlar, oddiy tajribalar o'tkazishni tavsiya qiladi. Savollarga javob berishni jism va hodisalar (o'simliklar gerbariysi, hayvonlar chuchelasi yoki ularning rasmlari, minerallar, video, tajriba va hokazolar) ni ko'rsatish bilan olib borgan ma'qul. Klub mashg'ulotlarini o'tkazishga bunday tayyorgarlik bolalarda faqat kuzatuvchanlikni, qo'shimcha adabiyot bilan ishlash va savollarga to'g'ri javob berish uquvinigina emas, balki ko'rsatish uchun material tanlash uquvlarini ham rivojlantiradi, javoblarni ancha isbotli va esda qoluvchi bo'lishini ta'minlaydi, boshqa klub a'zolarida ham savollarni chuqur va qiziqarli yoritishga intilishni vujudga keltiradi.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda klub yig'ilishi o'tkazilayotgan sinfdan burchak yoki axborot stendi (devoriy gazeta) ni jihozlash kerak, ularda bo'lajak yig'ilishlar, ularning mavzusi, adabiyotni tavsiya qiluvchi ro'yxat to'g'risida bildirish joylashtiriladi. Bu yerda kitoblar, ko'rgazmali qurollar, tabiiy materiallardan tayyorlangan ko'rgazmalar ham qo'yiladi.



Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda ommaviy ishlar. Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar ekskursiyalar, tanlovlar, video va kinofilmlarni ko'rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil tadbirlar (Tog'lar kuni, minerallar, daraxtlar o'tqazish va boshqalar) ni ham o'z ichiga oladi. Ulardan maqsad – sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb etish, ularda qatnashishga ishtiyoq va xohishni uyg'otish, bolalar faolligini yoigga qo'yish, ularni ijtimoiy-foydali ishlarga yo'naltirish, bolalarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Geografiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ommaviy ishlar uzoq va puxta tayyorgarlikni talab qiladi. U yoki bu tadbirni o'tkazish uchun oldindan uncha katta bo'lmagan tashabbuskorlar guruhini tanlash va reja ishlab chiqish, topshiriqlarni hamma qatnashchilarga taqsimlash kerak. Guruhning har bir a'zosi o'z zimmasiga rejaning muayyan bo'limini bajarish mas'uliyatini oladi. Chunonchi, "Bahor keidi" nomli bayram tadbiriga tayyorlanishda o'quvchilardan biri bahor to'g'risida axborot beradi, boshqasi hamkorlikga olingan sinf bilan badiiy havaskorlikni uyushtiradi, uchinchi - ijrochilar uchun kiyim -kechak, to'rtinchisi - devoriy gazeta tayyorlaydi va hokazo.

Tadbirga tayyorlanish tabiat to'g'risidagi o'z bilimlarini kuzatishlar yoki kitoblarni o'qish yordamida to'ldirish bilan bog'liq bo'lishi lozim. Chunonchi, bahor (ochiq kunlar, qorlarning erishi, qushlarning uchib kelishi, kun va tunning tenglashishi) to'g'risidagi axborotni tayyorlash kuzatishlar va tabiatdagi bahorgi o'zgarishlar to'g'risidagi adabiyot o'qish bilan bog'liqdir. Tadbir rejada belgilangan vaqtda barcha o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak (Ota-onalar ham taklif qilinishi mumkin).

Uyushqoqlik, chiroyli rasmiylashtirish (bezatish), yorqin chiqishlar shunday tadbirlarning uzviy qismlaridir. Ular ishtirokchilar xotirasida kechinmalarni saqlovchi va tabiatni o'rganish hamda muhofaza qilish bo'yicha ishlarni chuqurlashtirish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiluvchi hissiy ko'tarinkilikni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. I.A.Karimovning Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. „ O‘zbekiston ” 2015yil
2. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. „Shar ” 1997yil
3. Рахмонов, Р. Р. (2023). БУХОРО ОВЧИЛИГИ. Novateur Publications, (13), 1-141.
4. Рахмонов, Р. Р., & Бехруз, Ҳ. (2022). УМУРТҚАСИЗЛАР ЗООЛОГИЯСИ ДАРСЛАРИДА “САРКОМАСТИГОФОРЛАР ТИПИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Uzbek Scholar Journal, 10, 558-569.
5. Рахмонов, Р. Р., Нўмонов, Қ. Х. Ў., Самадова, И. Ш., & Орипова, Ю. С. Қ. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ОВЧИЛИК СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 372-382.
6. Рахмонов, Р., Халилова, Н., Отамуродова, М., & Ибодова, С. (2023). ИХТИОФАГ ҚУШЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ БИОЗАРАРЛАНИШЛАР, УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ, МУҲОФАЗА ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(5 Part 2), 158-174.
7. Raximovich, R. R., Hamzayevich, B. A., & Umedjonovna, I. S. (2023). ZARARLI SUTEMIZUVCHILARNING INSON HAYOTIDAGI O ‘RNI VA TABIATDAGI AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 2(1), 537-544.
8. Rakhimovich, R. R., & Rustamovich, R. A. (2019). Structure and distribution of animals in the Bukhara region. European science review, 2(1-2), 34-36.
9. Rakhimovich, R. R., Husniddinovna, J. H., Bekzod, U. M., & Ranjievna, S. M. (2023). Medicinal Properties and Use of Water Pepper (Polygonum Hydropiper L.). JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(3), 45-52.
10. Raximovich, R. R., & Xasan o‘g, N. M. Q. (2023). GULXAYRI (ALTHAEA) NING MORFOLOGIYASI, ANATOMINIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. IQRO, 2(1), 620-625.



11. Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). Ecological positions of hunting species in Bukhara region. *International Journal of Genetic Engineering*, 7(1), 15-18.
12. Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS IN BUKHARA. *Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia*, (2), 65-68.
13. Rayimov, A., Rakhmonov, R., Nuriddinova, G., & Sanoqulov, R. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES' SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS' IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). *Universum: химия и биология*, (5-2), 62-65.
14. Рахмонов, Р., Рахимов, Ж., Муҳаммаджонов, Б., & Бафоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕТИШТИРИЛАДИГАН МАНЗАРАЛИ БАЛИҚЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 1039-1051.
15. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). The role of adaptive reactions of starling synantropization. In *Региональные проблемы экологии и охраны животного мира* (pp. 167-169).
16. Rustamovich, R. A., & Rakhimovich, R. R. (2019). The distribution and number of *Acridotheres tristis* in different habitats in the Kyzylkum region. *European science review*, 2(1-2), 37-39.
17. Rakhmonov, R. R., Naimovich, Z. A., & Khudoikulova, N. I. (2021). Possibilities of Introduction of Hunting Tourism in Hunting Farms of Bukhara Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(1), 253-256.
18. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). Around territories of dengizkul, kora-kir and zamonbobo lakes' species of reptiles part and numbers' in spring. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 800-804.
19. Рахмонов, Р. Р., Райимов, А. Р., Уракова, М. А., & Рахимов, Ж. Р. *ҒУРРАК (ОБЫКНОВЕННАЯ ГОРЛИЦА) НИНГ ТАРҚАЛИШИ,*



БИОЛОГИЯСИ ВА АҲАМИЯТИ. Sayidova NS, Kazimova GX Grafik obyektlarda.

20. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., & Kenjayevana, N. H. (2021). Taxonomic Analysis of Hunting Milk Markers in Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 13.
21. Amanovna, S. M., Rakhmonov, R. R., & Naimovich, Z. A. (2021). Lagerstroemia indica I. high potential medicinal plant in introduction conditions of kashkadarya. Middle European Scientific Bulletin, 8.
22. Avaz, R., Rashid, R., Hikoyat, N., & Moxinur, R. (2021). DATA ON THE DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF SANDSTONE LEPUS CAPENSIS IN BUKHARA REGION. Universum: химия и биология, (7-2 (85)), 4-8.
23. Asrorov, A. A. (2023). Болаларда сурункали тонзиллитнинг клиник кечишини ўзига хослиги. Eurasian Journal of Otorhinolaryngology-Head and Neck Surgery, 2, 35-40.
24. Рахимов, Ж. Р., Рахмонов, Р. Р., Райимов, А. Р., & Бакаева, Ш. Б. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН ЎТХЎР БАЛИҚЛАРНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(6), 23-28.
25. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). EVALUATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON THE TYPES OF ANIMALS IN BUKHARA REGION. In Региональные проблемы экологии и охраны животного мира (pp. 214-216).
26. Рахмонов, Р. Р., & Бакаев, С. Б. (2016). Гнездование перепелятника Accipiter nisus в Сармышсае. Русский орнитологический журнал, 25(1358), 4214-4215.
27. Рахмонов, Р. Р. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОВЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ҲАҚИДА ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(9), 169-176.
28. Рахмонов, Р. Р., Юсупова, С. Ж., Зарипова, З. Н., & Абдурахимова, А. А. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАРИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY



JURNALI, 2(10), 71-82.

- 29.Рахмонов, Р. Р., Исломова, Ф. М., Кайимова, Р. У., & Коннов, И. Е. (2022). Биология, Экология И Распространение Кабана. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 1(10), 49-61.
- 30.Рахмонов, Р. Р. (2022). Бухоро вилоятидаги овчилик хўжаликлари ҳақида янги маълумотлар. Science and Education, 3(10), 68-76.
- 31.Rustamovich, R. A., Raximovich, R. R., Ilgorovna, I. U., & Baxtiyorovich, O. S. (2022). SUDRALIB YURUVCHILARNING YASHASH MUHITIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA'SIRINI BAHOLASH.
- 32.Бўриев, С. Б., Рахимов, Ж. Р., Рахмонов, Р. Р., & Султонова, Р. С. (2022). БАЛИҚЛАРНИ ОЗИҚЛАНТИРИШ БИОТЕХНОЛОГИЯСИ. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1, 40-48.
- 33.Рахмонов, Р. Р., Самандаровна, Қ. Д., & Норова, Д. Х. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН НОДИР ВА КАМЁБ БАЛИҚХЎР ҚУШЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1, 28-34.
- 34.Rashit, R., Avaz, R., Lobar, K., & Moxinur, R. (2021). Species composition and distribution of birds in the ornithofauna of Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 435-440.
- 35.Рахмонов, Р. Р., & Бехруз, Ҳ. (2022). УМУРТҚАСИЗЛАР ЗООЛОГИЯСИ ДАРСЛАРИДА “САРКОМАСТИГОФОРЛАР ТИПИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Uzbek Scholar Journal, 10, 558-569.
- 36.Akmalovna, A. C. (2022). SOG'LOM AVLOD QOLDIRISH-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. Uzbek Scholar Journal, 5, 177-181.
- 37.Aminjonovich, A. A. (2023). Diagnostic Methods of Pneumonia in Uzbekistan. Scholastic: Journal of Natural and Medical Education, 2(1), 111-116.



38. Akmalovna, A. C. (2022, March). BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOYBEAN. In E Conference Zone (pp. 90-94).
39. Aminjonova, C. A. (2021). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. Смоленский медицинский альманах, (1), 15-18.
40. AMINJONOVA, C. (2021). PROBLEMS AND METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
41. Akmalovna, A. C. (2022). Characteristics and Advantages of Soybean Benefits in Every way. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(8), 67-69.
42. Aminjonova, C. A. (2022). TALABALAR O'QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN VA METODLARIDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 3(3), 447-453.
43. Aminjonovich, A. A. (2023). Physical Exercises as an Important Process for Medical Students. Journal of Integrity in Ecosystems and Environment, 1(2), 22-27.
44. Aminjonova, C. A., & Jaloldinova, M. M. Q. (2023). VITAMINLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 288-296.
45. 43. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). ОИЛАВИЙ ШИФОКОР АМАЛИЁТИДА ИНСУЛЬТ ЎТКАЗГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ. ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1).
46. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). Оценка Состояния Когнитивных Нарушений У Пациентов Перенесших Инсульт В Практике Семейного Врача. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 397-401.
47. Aminjonovich, A. A., & Akmalovna, A. C. (2021, March). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 38-40).



48. Рахмонов, Р. Р., & Хайдарова, М. О. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ АЙРИМ НОЁБ МЕВАЛИ ЎСИМЛИКЛАР. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 203-210.
49. Шаропова, М. А., Рахмонов, Р. Р., & Хусниддиновна, Ж. Ҳ. (2022). ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН НОК PYRUS COMMUNIS L. ЎСИМЛИК НАВЛАРИНИНГ БИОЛОГИЯСИ ОИД МАЪЛУМОТЛАР. Uzbek Scholar Journal, 11, 76-86.
50. Amanovna, S. M., Raximovich, R. R., Nuriddinovna, M. G., & Bexruz To'liqin o'g, H. (2022). Limonning Ming Bir Dardga Davosi Va Foydali Xususiyatlari (Sil Va Skleroz Kasaligida, Jigarni Tozalashda). AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 1(7), 305-314.
51. Akmalovna, A. C. (2023). Ayollarda Vitamin Yetishmasligi Natijasida Kelib Chiqadigan Kasalliklar. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 2(2), 35-40.
52. Рахмонов, Р. Р., Исломова, Ф. М., Хайдарова, М. О., & Зайниддинова, М. Ф. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИДА РАСМАН ОВЛАНАДИГАН ҲАЙВОНЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 1-13.